SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Sayt: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4I12Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) - 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2024**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00-TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00-FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00-YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

*19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00-SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00-SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar boʻyicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefonlar:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 12-son (dekabr, 2024). -679 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Turg'unov Sherzod Abduvositovich*
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida) ........ 13-19

*Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li*
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI ........ 20-23

*Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich*
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR ........ 24-32

*Сойиб Раупов*
КАМБАҒАЛЛИК ВА УНИ ҚИСҚАРТИРИШ МУАММОЛАРИ ........ 33-42

*Abdimo'minov Oybek Bektemirovich*
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI ........ 43-48

*Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI ........ 49-53

*Temirova Munira*
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR ........ 54-58

*Sattorova Shahlo*
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI ........ 59-63

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Yazdonova Saxiba Kurbanovna*
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI ........ 64-72

*Таниев Аҳмаджон Бахромович*
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ ........ 73-82

*Ходжаниязов Элбек Сардорович*
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ ........ 83-93

*Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi*
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI ........ 94-99

*Ahmedov Adham Djalolovich*
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH ........ 100-105

*Ablazov Nurillo Xusanboyevich*
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 106-112

*Абдурахманов Мухторали*
ҲУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ............ 113-116

*Poshokulova Mohigul*
BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA ............ 117-122

*Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li*
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR ............ 123-131

*Sayfutdinova Nigina Furkatovna*
O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI ...... 132-135

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li*
O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI ............ 136-139

*Жўрамуродов Нодир Ғайбуллаевич*
ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ҒОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ............ 140-144

*Sayidova Muhabbat G'afforovna*
GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI ............ 145-149

*Kuraxmedov Azamat Erkinovich*
SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI ............ 150-153

*Umarova Feruza Rozibayevna*
O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI ............ 154-156

*Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li*
KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI ............ 157-161

*Begbudieva Parvina Shoxruxovna*
THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN ............ 162-166

*Aytbayev Mansurbek Yusupovich*
MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA ............ 167-173

*Muslimov Sherzod Akbarovich*
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT ............ 174-178

*Jantayev Maqsud Ibragimovich*
MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR ............ 179-184

*Norova Malika Fayzulloyevna*
TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI ............ 185-191

*Gulova Anorgul Axtamovna*
O‘ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIGA BO‘LGAN MUNOSABAT ........................ 192-196

*Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna*
BURCH VA MAS’ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI ........................ 197-205

*Berdikulov Chingiz Dusmuradovich*
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI ........................ 206-211

*Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich*
MILLIY-MA’NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA’NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA ........................ 212-216

*Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich*
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O‘RNI ........................ 217-221

*Bekpo‘latov Ulug‘bek Rahmatulla o‘g‘li*
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA’MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI ........................ 222-228

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна*
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ........................ 229-234

*Жамаҳматов Кароммиддин Айнилло ўғли*
БУРҲОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ ........................ 235-243

*Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi*
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “KO‘K” SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI ........................ 244-247

*Mansurova Mohinur Akmal qizi*
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI ........................ 248-252

*Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям*
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА ........................ 253-257

*Murodova Muqadas Ikromovna*
XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI ........................ 258-263

*Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna*
O‘ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLILI ........................ 264-268

*Davronov Shexroz Abrorovich*
OG‘ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI ........................ 269-273

*Begmatov Azizbek Tursunbayevich*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI ........................ 274-280

*Ibragimova Moxiraxon Anvarovna*
NUTQIY AKTLAR TASNIFI ........................ 281-285

*Расулова Истода Абдулатифовна*
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ ........................ 286-293

*Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi*
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ........ 294-299

*Furkatova Maxliyo To'lqin qizi*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI ........ 300-309

*Baxramov Xabibillo Sadikovich*
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ........ 310-315

*Тухтаев Сирожиддин Тошпўлатович*
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ........ 316-323

*Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li*
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI ........ 324-327

*Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna*
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI ........ 328-331

*Qayumova Mohinur Murodullayevna*
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE ........ 332-337

*Sayipova Dilafruz Rahimovna*
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI ........ 338-342

*Diyarov Akmal To'lqin o'g'li*
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI ........ 343-348

*Атаназарова Шохида Бахрамовна*
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА) ........ 349-353

*Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna*
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS ........ 354-364

*Alimova Dilrabo*
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI ........ 365-373

*Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna*
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI ........ 374-379

*Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна*
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА» ........ 380-390

*Khamidov Tohirjon Olmos ogli*
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE ........ 391-396

*Umurzakova Kommuna Xursanovna*
O'ZBEKISTON IJTIMOIY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQIDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI ........ 397-402

*Habibullayeva Shoira Shukurillayevna*
ONA TILI DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLIL QILISH METODIKASI ........ 403-406

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR


*Imomov Nurillo Fayzullayevich*
TA'MINLOVCHI TO'LOV – MAJBURIYATLARNI TA'MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA ........ 407-414

*Салаев Нодирбек Сапарбаевич*
ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ........ 415-431

*Ходжиев Юнус Мухитдинович*
МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНИНГ ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ ........ 432-436

*Сайдивалиева Хуршида*
БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 437-445

*Miqumov Bobur*
THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........ 446-451

*Raimova Nargiza Doroyevna, To'ychiyeva Bahora Otabekovna*
PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS ........ 452-459

*Чориева Хуршидабону Хуррам қизи*
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 460-468

*Toshkanov Nurbek Bahriddinovich*
UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO'LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI ........ 469-478

*Kubaeva Ismigul Farxod qizi*
CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE ........ 479-484

*Юсупов Ўктамбой Абсаматович*
ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 485-491

*Баходирова Сабина Улугбек кизи*
РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ ........ 492-503

*Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли*
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 504-508

*Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o'g'li*
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI ........ 509-520

*To'ychiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna*
PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS ........ 521-528

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Ibraximov Sanjar Urunbayevich*
SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI ........ 529-539

*Urazkulova Anna Vitalyevna*
OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI ........ 540-545

*Қаршиева Дилбар Эшпулатовна*
ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ ........ 546-550

*Ajiyeva Mixabbat Baxtibayevna*
KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH ........ 551-555

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*
O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV ........ 556-564

*Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna*
SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE ........ 565-570

*Акрамова Умеда Салиевна*
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ ........ 571-582

*Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi*
MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI ........ 583-590

*Boboqulov Chori Urolovich*
SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ........ 591-595

*To'xtayev Hasan Toshpo'latovich*
ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV-PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI ........ 596-599

*Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich*
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 600-607

*Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna*
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLIL) ........ 608-615

*Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи*
МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ ........ 616-619

*Qodirov Xasanboy Oribjonovich*
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ........ 620-526

*Aliyeva Iroda Otabek qizi*
MAKTABGACHA TA'LIMGA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLILLAR ........ 627-631

*Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li*
O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI ........ 632-636

*Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi*
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI ........ 637-642

*Салиев Улугбек, Салиева Нигора*
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ ........ 643-648

*Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна*
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ ........ 649-655

*Муминова Офтобхон Каримовна*
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ ........ 656-661

*Ахмедова Уктамхон*
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ ........ 662-667

*Sattarova Markhabo Raxmonkulovna*
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ........ 668-672

*Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna*
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI ........ 673-678

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issue 12 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

## 07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

**Received:** 30 November 2024
**Accepted:** 5 December 2024
**Published:** 15 December 2024

*Article / Original Paper*

# SOME OPINIONS ON THE MATERIAL AND TECHNICAL CONDITION OF INDUSTRIAL ENTERPRISES OF FERGANA REGION AND THEIR IMPORTANCE IN LABOR PROTECTION OF THEIR INDUSTRIAL WORKERS (based on the analysis of articles published in periodical press publications in Fergana region in 1950-1970)

**Turgunov Sherzod,**
Doktoral student at the department of History,
Fergana State University

**Abstract.** This article describes the material and technical condition of industrial enterprises operating in the Fergana region in the 1950s-1970s of the last century and the changes in this field, as well as the material and technical condition of industrial enterprises in ensuring the labor protection of workers and servants, engineers and technicians. information about the significance of the changes is provided.

**Keywords:** "Kommuna" newspaper, Moskow StateBearing Plant No1, Kokand Dairy Factory,"Elektromash" plant, "Chimyon" resort, Margilan silk weaving factory, Kokan oil extract plant, Fergana bread factory, Fergana textile factory.

# FARGʻONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Fargʻona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e’lon qilingan maqolalar tahlili asosida)

**Turgʻunov Sherzod Abduvositovich,**
Fargʻona davlat universiteti,
“Oʻzbekiston tarixi” kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: turgunovs979@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oʻtgan asrning 1950-1970-yillarida Fargʻona viloyatida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining moddiy texnik holati va bu sohadagi oʻzgarishlar haqida va shuningdek ishchilar va xizmatchilar, muhandis va texnik xodimlarning mehnat muhofazasini ta’minlashda sanoat korxonalarining moddiy-texnik holatidagi oʻzgarishlarning ahamiyati haqida ma’lumotlar taqdim etilgan.

**Kalit soʻzlar:** “Kommuna” gazetasi, Qoʻqon sut zavodi, Moskva 1-Davlat podshivnik zavodi, “Elektromash” zavodi, “Chimyon” oromgohi, Margʻilon shoyi toʻqish fabrikasi, Qoʻqon yogʻ ekstrakt zavodi, Fargʻona non kombinati, Fargʻona toʻqimachilik kombinati.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N01

**Kirish.** Farg'ona viloyati sanoati sobiq sovet tuzumi davrida ham O'zbekiston SSR iqtisodiyotida o'ziga xos o'rin tutgan. Farg'ona viloyatida o'tgan asrning 1950-1970-yillarda sanoatning turli tarmoqlariga mansub ko'plab sanoat korxonalari faoliyat olib borgan bo'lib ushbu korxonalarda viloyatning turli hududlaridan minglab muhandis va texnik xodimlar va ishchi va xizmatchilar mehnat qilgan. Ushbu sanoat korxonalarining moddiy-texnik holati 1950- va 1970-yillar davomida bir holatda bo'lmagan. Xususan, 1950-yillarda viloyatdagi ko'plab zavod va fabrikalarning ishlab chiqarish uskunalari 1930-1940-yillarda ishlab chiqarilgan jihozlar bo'lib ularning aksariyat qismi ishlab chiqarish samaradorligi past bo'lgan va ularda mehnat qilayotgan ishchilarning mehnat muhofazasi bo'yicha xavfsizligi talab darajasida ta'minlanmagan bo'lgan. Masalan, Farg'ona viloyatida ham paxtani qayta ishlash sanoati viloyatning asosiy iqtisodiy tarmoqlaridan biri bo'lib ushbu turdagi zavodlarda foydalanib kelinayotgan uskunalar Sovet Ittifoqining turli hududlarida ishlab chiqarilgan. Xususan, Toshkent shahridagi "Uzbekxlopmash" zavodida ishlab chiqarilgan uskunalar bo'lgan. Farg'ona viloyatidagi yirik sanoat korxonalaridan biri Qo'qon superfosfat zavodining moddiy-texnik holati boshqa sanoat korxonalariga nisbatan yaxshi holatda bo'lib, ushbu zavodda ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnika va texnologiyalar doimiy ravishda tatbiq etib borilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mustaqil O'zbekistonda aholining keng ommasini iqtisodiy–ijtimoiy ahvolini yaxshilash, farovon turmush tarziga ega bo'lishi uchun bugungi kunda davlat miqyosida keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda aholining ish bilan ta'minlamagan qismini doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash, aholing kambag'al qismini kambag'allik darajasidan chiqarish eng asosiy maqsad sifatida ilgari surilmoqda. Bu jarayonda yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalari va ularda ishchi va xizmatchilar uchun yaratilgan mehnat muhofazasi, tibbiy –sog'lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati juda katta. Maqolada yoritilgan mavzuning ahamiyati shundaki sobiq sovet tuzumi davrida milliy respublikalarning turli viloyatlarida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarida mehnatkashlarning mehnat sharoitlari, ularning sog'liklarini saqlash, ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan amaliy tadbirlarning asl holatini o'rganish orqali va ushbu holatni yosh o'sib kelayotgan avlodga to'g'ri yoritib berish orqali yosh avlod vakillarida shuningdek barcha yosh toifasidagi yurtdoshlarimizda bugungi kunda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan aholining iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy jihatdan yetukligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mazmuni va ahamiyatini yoritib berishda va shuningdek shunday farovon hayotni qadrlash tuyg'usini rivojlantirishda ahamiyati katta.

**Tadqiqotning amalga oshirilishi.** Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining muhandis va texnik xodimlariga, ishchi va xizmatchilariga va ushbu korxonalarda moddiy –texnik holatni yaxshilash asnosida ushbu korxonalarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan muhandis va texnik xodimlar, ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashda, ularning mehnat muhofazasini ta'minlash borasida mavjud holat bo'yicha erishilgan yutuqlar va kamchiliklar to'g'risida Farg'ona viloyati partiya qo'mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri hisoblanasan "Коммуна" gazetasining 1950-1970-yillarda nashr qilingan sonlarida e'lon qilingan maqolalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida zarur ma'lumotlar qo'lga kiritildi.Farg'ona viloyatining Farg'ona shahrida faoliyat olib borayotgan Ahmad al-Farg'oniy nomli Axborot Kutubxona Markazining fondlarida

saqlanayotgan oʻtgan asrning 50-70-yillariga oid vaqtli matbuot nashrlari oʻrganildi va ilmiy tadqiqot ishiga oid muhim maʼlumotlar qoʻlga kiritildi. Bu jarayonda “Kommuna” gazetasining 1950-1970-yillarda nashr etilgan sonlari xronologik tartibda koʻrib chiqildi. Ushbu gazetaning deyarli barcha sonlarida sanoat yangiliklari rukni mavjud boʻlgan. Ushbu ruknda viloyatda sanoat sohasida yuz berayotgan muhim yangiliklar, sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat sharoitlarida erishilayotgan yutuqlar va shu bilan bir qatorda mavjud kamchiliklar haqida, mehnatkashlarning sogʻliklarini saqlash va mehnat qilish qobiliyatini qayta tiklash va ish unumdorligini oshirish yuzasidan bajarilgan tadbirlar, xususan, sanatoriylar, kurortlar va dam olish uylarida mehnatkashlarni oʻz sogʻliklarini tiklash va mustahkamlash boʻyicha bajarilgan amaliy ishlar va sanoat korxonalarining moddiy-texnik holati, ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etilayotgan yangiliklar, sanoat korxonalaridagi novatorlik, ratsionalizatorlik faoliyatlari haqida va shuningdek viloyatdagi zavod va fabrikalarning davlat tomonidan qoʻyilgan mehnat majburiyatlarini bajarish sohasidagi yutuqlari va kamchiliklari haqida ham maʼlumotlar keltirilgan. Ushbu maʼlumotlarni oʻrganish jarayonida qiyosiy taqqoslash usullaridan ham foydalanildi. Bu jarayonda xuddi shu davrda Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida, xususan, RSFSRdagi sanoat korxonalari yoki Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida joylashgan Ukraina SSR, Belorussiya SSR kabi respublikalardagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va mehnatkashlarning mehnat muhofazasi haqida va ushbu hududlardagi zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan eng yangi jihozlar va uskunalar va ularning afzalliklari, ishchilarning mehnat muhofazasini taʼminlashdagi ahamiyati haqida ushbu gazetada berilgan maʼlumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

**Natijalar va muhokama.** Fargʻona viloyati sobiq sovet tuzumi yillarida va bugungi kunda ham Oʻzbekiston Respublikasining asosiy sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Fargʻona oblasti hududida Turkiston General-gubernatorligi hukm surgan davrdayoq juda koʻplab sanoat korxonalari qurilgan va ishga tushirilgan. Ushbu sanoat korxonalarining asosiy qismini paxta va chigitni qayta ishlash zavodlari tashkil etgan. Chunki Fargʻona viloyati Turkiston general gubernatorligining paxta yetishtiriladigan asosiy uch hududlaridan biri hisoblangan. Masalan, 1914-yilda viloyatdagi sanoat korxonalarining 88% qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga birlamchi ishlov beruvchi korxonalar tashkil etgan boʻlsa, 9% oziq –ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar teriga ishlov beruvchi va ogʻir sanoatga taalluqli korxonalar esa jami sanoat korxonalarining 3% tashkil etgan. Shuningdek, viloyatda neft qazib olish va uni qayta ishlash sanoatiga ham chor podsholigi hukmronligi davridayoq tamal toshi qoʻyilgan. Xususan, 1904-yilda hozirgi Oltiariq tumanida neft qazib olish quduqlari ishga tushirilgan. 1906-yildan ushbu quduqlardan qazib olinayotgan neft mahsulotlarini qayta ishlash maqsadida Vannovskiy neft uzatish zavodi ishga tushirilgan (hozirda bu zavod oʻrnida Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi joylashgan). Oktyabr davlat toʻntarishidan keyin hokimiyatni qoʻlga olgan bolsheviklar diktaturasi davrida viloyatdagi barcha zavodlar davlat tasarrufiga milliylashtirildi.

1924-yilga kelib Fargʻona viloyatida 40 ta sanoat korxonasi davlat tasarrufiga oʻtkazilgan. Fargʻona viloyatida 1920-1930-yillarda koʻplab yangi sanoat korxonalari bunyod etildi. 1930-yilning oʻzidayoq viloyatdagi yirik sanoat korxonalaridan biri hisoblangan Fargʻona tekstil kombinati va viloyatdagi kimyo sanoatining toʻngʻich sanoat korxonasi hisoblangan Quvasoy sement zavodi va Margʻilon ipakchilik fabrikasi, Fargʻona va Qoʻqon gʻisht zavodlari

ishga tushirilgan.Yangi zavod va fabrikalarni ishga tushirilishi oʻz navbatida elektr energiyasiga boʻlgan talabni oshishiga sabab boʻldi va natijada 1930-yillarda Fargʻona viloyatida Fargʻona TES va Quvasoy GRES lar qurib ishga tushirildi. Fargʻona viloyatida kimyo sanoati korxonalari tarmogʻini kengaytirish maqsadida 1932-yilda Shoʻrsuv oltingugurt zavodi qurib ishga tushgirilgan[1.str-959].

2-jahon urushi yillarida Quvasoy sement zavodning 2-3 navbatlari ishga tushirildi bundan tashqari viloyatda 14 dan ortiq mashinasozlik, metallga ishlov berish tikuvchilik, ipakchilik va qand ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi zavodlar ishga tushirilgan. Xususan, 1942-yilda kimyo sanoatiga oid yirik zavodlar Qoʻqon superfosfat zavodi va Fargʻona gidroliz zavodini qurish ishlari boshlandi va ushbu ikki sanoat korxonasining birinchi navbatida 1943-yilda ishga tushirilib mamlakat uchun muhim boʻlgan kimyoviy oʻgʻitlar va oltingugurt kislotasi ishlab chiqara boshladi. 2-jahon urushidan keyingi yillar davomida ham Fargʻona viloyatida sanoatning turli tarmoqlariga mansub yuzlab sanoat korxonalari faoliyat olib borgan. Bu sanoat korxonalarining eng yiriklari Fargʻona neftni qayta ishlash zavodi, Fargʻona azot zavodi, Fargʻona elektrokimyo kombinati, Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi, Quvasoy shifer zavodi kabilar hisoblangan.Bundan tashqari viloyatda yengil sanoat tizimiga kiruvchi Margʻilon pillani qayta ishlash fabrikasi, Fargʻona tikuvchilik fabrikasi, Fargʻona shoyi oʻrash fabrikasi, Fargʻona toʻquvchilik fabrikasi, Oziq ovqat sanoatiga mansub Fargʻona goʻsht kombinati, Fargʻona sutni qayta ishlash zavodi, Fargʻona yogʻ-ekstrakt zavodi, Fargʻona donni qayta ishlash zavodi kabi sanoat korxonalari ham faoliyat olib borgan. Fargʻona oblastidagi Ittifoq ahamiyatiga ega yirik sanoat korxonasi Fargʻona neftni qayta ishlash zavodi hisoblangan. Ushbu sanoat korxonasi SSSR neft sanoati tizimida ham oʻziga xos oʻringa ega boʻlgan respublika miqyosidagi yirik sanoat korxonalaridan biri edi. Ushbu yirik sanoat korxonasining tarkibiga Fargʻona shahridagi bosh korxona, Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi, Pop va Angren shahridagi neftbazalar kiradi. Ushbu sanoat korxonasida yuqori oktanli benzin, shu jumladan aviatexnik kerosin, dizel yoqilgʻisi, kokos, turli motor moylari, paraffin, bitum, mazut kabi 56 dan ziyod mahsulotlar ishlab chiqaradi. Zavodning 1-navbati 1959-yil 27-yanvarda ishga tushirilgan boʻlib, Oʻrta Osiyoda birinchi marta surkov moylari ishlab chiqara boshlagan. Ushbu yirik sanoat korxonasi 1965-yildan toʻliq quvvat bilan mahsulot ishlab chiqara boshlagan. 1966-yilda zavodning 2-navbati qurila boshlangan. 1970-yildan boshlab zavodda K-12 markali va oktan soni yuqori boʻlgan benzin ishlab chiqarish boshlagan.

Fargʻona viloyatidagi zavod va fabrikalarning moddiy-texnik ahvoli 1950-1980-yillarda bir xil darajada boʻlmagan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda sobiq Sovet Ittifoqida ham sanoatning turli tarmoqlariga mansub zavod va fabrikalarning moddiy-texnik holatini yaxshilash uchun bir qator ijobiy oʻzgarishlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, 1950-yilga kelib Sovet Ittifoqida ilgʻor texnologiyalar va uskunalar bilan taʼminlangan korxonalar nufuzi 1940-yilga qaraganda 58% ga oshgan. Bundan tashqari sanoatda mahsulot ishlab chiqarayotgan stanoklar soni 1950-yilga kelib 1940-yilga nisbatan 2 marotaba koʻpaygan. Ushbu davrda sanoat korxonalarini elektrlashtirish darajasi 1940-yilga nisbatan bir yarim marotabaga oshgan[ 2.2-bet].

Fargʻona viloyatidagi toʻngʻich sanoat korxonalaridan biri hisoblangan Fargʻona toʻqimachilik kombinatida 1952-yil davomida kombinatda mehnat qilayotgan muhandis va texnik xodimlar, ishchilar tomonidan ishlab chiqarish texnologiyalarini ixchamlashtirish boʻyicha qimmatli amaliy takliflar tasdiqlanib tez fursatlarda amaliyotga tatbiq etilgan.

Masalan, ushbu kombinatning 2-yigiruv fabrikasi muhandisi A.Pavlovskaya va sex masteri N.Rjevsev tomonidan barcha barqarorlashtirish dastgohlarining siygʻanma podshivniklarini sharikli podshivniklar bilan almashtirish taklifi amaliyotga qoʻllanilishi natijasida ishlab chiqarish dastgohlarining ish unumi tezlashgan va buning natijasida ishlab chiqarish unumdorligi 10% ga oshgan. Ushbu fabrikaning yana bir ixtirochi master oʻrinbosari K.Guziyev graben mashinalarini yogʻoch uchun maxsus asbob yaratgan va ushbu asbobni amaliyotda qoʻllanilishi natijasida graben mashinalarini yogʻlash uchun sarflanayotgan vaqt miqdori kamaygan va shuningdek mashinalarning ish unumdorligi 10%ga oshgan.[3.2-bet]

Ushbu yillarda shuningdek Fargʻona viloyatidagi oziq–ovqat sanoatiga mansub korxonalarda ham moddiy-texnik holatni yaxshilash uchun bir qator amaliy tadbirlar bajarilgan. Xususan, Fargʻona yogʻ-moy kombinatida ishlab chiqarish jarayonida ratsionalizatorlik takliflarini amaliyotga tatbiq etish orqali kombinatda mehnat qilayotgan mehnatkashlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida 1955-yil davomida kombinat ixtirochilar kengashi tomonidan kombinatning ixtirochi ishchi va muhandislari tomonidan taqdim etilgan 29 ta ratsionalizatorlik takliflaridan 24 tasi amaliyotga joriy etilgan. Ana shunday amaliyotga tatbiq etilgan yangiliklardan biri ushbu kombinatda chilangar boʻlib mehnat qilib kelayotgan V.Yanin tomonidan yaratilgan sovun kesish uskunasi boʻlib, bu uskunani ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida sovun kesish jarayonida qoʻl mehnati salmogʻi kamaygan. Kombinatning yana bir ixtirochisi A.Korovin tomonidan kombinatga vagonlarda olib kelingan chigitni tushirish jarayonlarini mexanizatsiyalashgan uskunasi yaratilgan va ushbu jarayonda ham ishchilarning ogʻir qoʻl mehnatining salmogʻi kamaygan.[4.2-bet]

Ma’lumki, sobiq sovet tuzumi davrida nafaqat Fargʻona viloyati balki butun Oʻzbekiston SSRda mahalliy sanoat korxonalarining viloyatlar iqtisodiyotida tutgan oʻrni va ahamiyati katta boʻlgan. Fargʻona viloyatida ham 1950-1970-yillar oraligʻida mahalliy sanoat tarmoqlariga mansub koʻplab korxonalar faoliyat olib borgan. Ushbu korxonalarda ham ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va oʻgʻir qoʻl mehnatini kamaytirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilganligi oʻsha davrda nashr qilingan vaqtli matbuot nashrlarida yoritib borilgan. Xususan, Fargʻona viloyat partiya qoʻmitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri hisoblangan “Kommuna” gazetasining 1956-yil 1-yanvarda chop etilgan 1(16683)-sonida Ye.Ovsyannikov muallifligida e’lon qilingan “Ishlab chiqarishda yangi muvaffaqiyatlar uchun” nomli maqolada keltirilgan ma’lumotlarga koʻra, 1955-yil davomida Fargʻona viloyat mahalliy sanoat boshqarmasi tasarrufidagi bir nechta zavodlarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish yuzasidan ba’zi tadbirlar amalga oshirilgan. Masalan, ushbu boshqarma tasarrufidagi 3 ta gʻisht ishlab chiqarish zavodlarida gʻishtni qoliplash jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan va bu jarayonda ishchilarning ogʻir qoʻl mehnatiga asoslangan mehnatlari yengilashgan.[5.2-bet]

1956-yilda viloyatda mavjud oziq –ovqat sanoatiga mansub ba’zi korxonalarda ham yangi rusumdagi nisbatan takomillashgan jihozlarning ishga tushirilishi ushbu korxonalarda ishchilarning ogʻir qoʻl mehnatini bir oz boʻlsada yengillashishiga imoniyat yaratgan. Xususan, Fargʻona non zavodida 1956-yilda FTL-2 rusumidagi yangi non pishirish pechini ishga tushirilishi natijasida zavod bir kecha kunduzda 17 tonna non mahsulotlari, 12 tonna bulka va bulochka mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega boʻlgan. Ushbu yangi non pishirish

pechini ishlatish jarayonlari avtomatlashtirilganligi zavod ishchilarining qo'l mehnati bilan bajariladigan jarayonlar sonini qisqarishiga imkoniyat yaratgan.[6.4-bet]

1960-yillarda ham oziq–ovqat sanoatiga mansub ba'zi zavod va kombinatlarda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va qo'l mehnatiga asoslangan mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini sonini kamaytirish bo'yicha ayrim amaliy ishlar bajarilgan. Xususan, Qo'qon shahridagi sutni qayta ishlash zavodida 1960-yilda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish maqsadida tayyor sut va kefir mahsulotlarini idishlarga quyadigan avtomat dastgoh o'rnatilib ishga tushirilgan. Ushbu yangi dastgohning ishga tushirilishi natijasida tayyor sut mahsulotlarni qadoqlash jarayonida qo'l mehnatini salmog'i kamaygan.[7.2-bet]

1965-yilga kelib Farg'ona viloyatidagi ba'zi sanoat korxonalarida ayrim ishlab chiqarish sexlarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonini to'liq mexanizatsiyalash ishlari yo'lga qo'yilgan. Masalan, Qo'qon shahridagi "Bolshevik" nomli mexanika zavodining quyish sexidagi o'g'ir mehnatga asoslangan jarayonlar to'la mexanizatsiyalashtirilgan.[8.2-bet]

Sovet Ittifoqining markaziy hududlaridagi mashinasozlik sanoatiga mansub bo'lgan zavodlarda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish jarayonlari milliy respublikalardagi xuddi shu tizimga mansub korxonalardan avvalroq, ya'ni, 1962-yildayoq tez sur'atlarda amalga oshirila boshlangan. Masalan, Moskva shahridagi 1-Davlat podshivnik zavodida 1962-yilda dunyo miqyosida birinchilardan bo'lib podshivnik ishlab chiqarish sexlaridan birida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari to'la avtomatlashtirilgan. Shuningdek ushbu zavodda avtomobillarning kardanlari uchun podshivnik ishlab chiqaradigan sexda ham yangi avtomat tizim ishga tushirilgan.[9.4-bet]

Bu jarayonda ma'lum bo'ladiki sobiq sovet tuzumi davrida sanoat korxonalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash masalasida ham "Qoldiq siyosati amaliyotda qo'llanilgan. Ya'ni, birinchi navbatda Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida joylashgan sanoat korxonalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash, ulardagi ishlab chiqarish jihozlarini takomillashtirish ustuvor vazifa hisoblangan. Milliy respublikalardagi sanoatning turli tarmoqlariga mansub zavod va fabrikalarida foydalanib kelinayotgan jihoz va uskunalarni zamonaviy va takomillashgan, mahsuldorligi yuqori bo'lgan uskunalar bilan almashtirish va shu orqali ushbu sanoat korxonalarda mehnat qilayotgan mehnatkashlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar hukmron markazning e'tiboridan chetda qolavergan.

**Xulosa.** Farg'ona viloyatidagi Ahmad al-Farg'oniy nomidagi Axborot kutubxona markazida saqlanayotgan o'tgan asrning 50-70-yillariga mansub vaqtli matbuot nashrlari xususan Farg'ona viloyati partiya qo'mitasi va Mehnatkash deputatlari viloyat Kengashining rasmiy nashri bo'lgan "Kommuna" gazetasining 1950-1970-yillar davomida chop etilgan sonlarini o'rganish va tahlil qilish jarayonida shunday xulosalar shakllandi. Sovet Ittifoqidagi yakkahukmron partiya KPSS dasturlarida, ko'rsatmalarida kommunistik partiyaning zarbdor kuchi deb hisoblangan ishchilar va xizmatchilar uchun qulay mehnat sharoitlari, farovon moddiy turmush tarzi yaratish bo'yicha katta va'dalar berilgan bo'lsada amalda 1990-yillarga kelib sanoatning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning o'g'ir iqtisodiy ahvolga tushib qolishi, zavod va fabrikalardagi ishlab chiqarish jarayonlariga eng ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish jarayonlari sekinlik bilan amalga oshirilishi, mehnatkashlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan mehnat muhofazasi sohasidagi

kamchiliklarni bartaraf etilmaganligi mamlakatdagi millionlab mehnatkashlar orasida Kommunistik partiyaning obroʻsizlanishiga zamin yaratdi. Shuningdek ushbu davrda Fargʻona viloyatidagi sanoat korxonalarida ishchi va xizmatchilarning sogʻligʻini saqlash va ularning ishlab chiqarish faoliyatidan boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazishni taʼminlash boʻyicha amalga oshirilgan tadbirlar 1950-1970-yillar davomida bir xil holatda boʻlmaganligi, faqatgina 1984-yildan keyingi davrda mehnatkashlarga gʻamxoʻrlik qilish hukumat miqyosidagi muhim jarayon sifatida koʻrila boshlanganligi vaqtli matbuot nashrlarida eʼlon qilingan maqolalarni oʻrganish natijasida maʼlum boʻldi. Hukmron Markazning qoldiq siyosati natijasida milliy respublikalardagi sanoat korxonalarini moddiy-texnik jihatdan modernizatsiya qilish jarayonlari deyarli amalga oshirilmadi. Sovet Ittifoqining markaziy hududlaridagi sanoat korxonalarini eng zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlash tadbirlari jadallik bilan amalga oshirilgan boʻlsada Ittifoqning olis hududlaridagi sanoatning turli tarmoqlariga mansub sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilar ogʻir mehnat sharoitida, qoʻl mehnati salmogʻi yuqori boʻlgan mehnat sharoitlarida va ularning sogʻliklarini saqlash va mustahkamlash boʻyicha talab darajasidagi sharoitlar mavjud boʻlmagan mehnat sharoitlarida ishlashda davom etaverdi. Ishchilarning mehnat sharoitlaridan noroziligi, xom-ashyo tanqisligi natijasida yuzaga kelgan ish oʻrinlarini qisqarishi, oylik maoshlar masalasidagi uzilishlar kabi jarayonlar Sovet Ittifoqida 1990-1991-yillarda yuzaga kelgan ogʻir siyosiy vaziyatga oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Даминов.З.Х.История промышленногоразвития Ферганской области. “Экономика и социум”..2021. №11стр-959
2. A.Ayrumov “Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish imkoniyatlari. “Kommuna” gazetasi 1952 y 5-son 2-bet
3. F.Dmitriyev.Yangi normlar asosida ishlamoqdalar”. “Kommunist” gazetasi 29.03.1952-y 60-son 2-bet
4. N.Nizomova “Ratsionalizatorlar hissasi” “Kommuna” gazetasi 5.04.1955-y.67-son 2-bet
5. Ye.Ovsyannikov. “Ishlab chiqarishda yangi muvafaqqiyatlar uchun” “Kommuna” gazetasi. 1956-yil 1-yanvar, 1(16683)-soni 2-bet
6. “Soat 24 dan 6gacha”, “Kommuna” gazetasi, 10.02.1956-y 29-son 4-bet
7. “Sanoat yangiliklari”, “Kommuna”,13.02.1962.31-son 2-bet
8. “Sanoat yangiliklari”, “Kommuna” gazetasi, 1965.28.07.148-son 2-bet
9. TASS Xabarnomasi, “Kommunar”, 31.03.1962-y,64-son, 4-bet

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefonlar:**

(99) 602-09-84 (telegram).